

G'AZNOV MAHALLASIDA TUMAN HOKIMINING NAVBATDAGI SAYYOR QABULI O'TKAZILDI



G'aznov mahallasida tuman hokimining navbatdagi sayyor qabuli o'tkazildi

Tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayevning 1-sektor hududida joylashgan G'aznov mahallasida fuqarolar bilan sayyor qabuli o'tkazildi.

Aholi bilan uchrashuvda fuqarolarning qator murojaatlari tuman hokimi tomonidan tinglandi.

Bildirilgan murojaatlarni shu joyning o'zida hal etish uchun ushbu qabulga jalb etilgan tashkilot rahbarlariga yechim sari yo'naltirib borildi va har bir murojaat bo'yicha tezkorlik bilan ish olib borilishi tuman hokimi tomonidan mas'ul xodimlarga topshirildi.

Murojaatlarning asosiy qismi ichki ko'chalarni asfaltlashtirish, tabiiy gaz ta'minotini yaxshilash, qish mavsumiga ko'mir mahsuloti yetkazib berishda amaliy ko'mak ko'rsatish, bir qancha joylarda shag'allashtirish ishlarni tashkil etish, ichimlik suvi tarmog'ini yaxshilash borasidagi masalalari o'rganib chiqildi.

Qabul jarayonlari har bir mahalla fuqarolari yig'ini hududida ana shunday tarzda tashkil etilgan bo'lib, zamiri aholi uchun qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir.







[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-13 15:58:04